



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-iyul

373-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyulda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PF–100-son Farmoni ijrosi haqida”gi 341-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 10-iyuldagi PF–100-son Farmonihamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi 341-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi 341-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF–100-son Farmoni bilan:  
Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasining quyidagi takliflari ma‘qullanganligi:

a) Hisob palatasi tomonidan:

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti ijrosini tashqi auditdan o‘tkazish va natijasi bo‘yicha tegishli xulosalarni tayyorlash;

2025-yildan boshlab ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlar faoliyatini auditdan o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

ijobiy xalqaro tajribadan kelib chiqib, strategik va axborot texnologiyalari auditi turlarini joriy etish;

b) Vazirlar Mahkamasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjeti ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotni Hisob palatasiga

tashqi audit o‘tkazish va baholash uchun hisobot yilidan keyingi yilning 5-martiga qadar yuborish tartibini belgilash;

belgilanishicha:

a) 2024-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalariga erishish dasturlarining ijrosi har yili Hisob palatasi tomonidan baholashdan o‘tkaziladi hamda natijalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga hisobot kiritilishi;

Bunda, birinchi navbatda, quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha strategik islohotlarning amalga oshirilishi va natijadorligi, samaradorligi hamda milliy maqsad va vazifalarga erishishdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar baholab borilishi;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturlari ijrosi;

O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasi ijrosi; Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasi ijrosi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotning tashqi auditi natijalari, shuningdek, kelgusi yil uchun budjet loyihagini baholash bo‘yicha Hisob palatasining xulosalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining majlislarida Hisob palatasining mas‘ul vakillari ishtirokida muhokama qilinishi;

v) 2025-yildan boshlab:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari hisobidan hududlarga taqsimlangan mablag‘lar bo‘yicha ma‘lumotlarni tegishli xalq deputatlari Kengashlariga taqdim etilishi, bunda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarga Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalaridan ajratilayotgan mablag‘lar bo‘yicha so‘rovi va nazorati yo‘lga qo‘yilishi;

birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjet dasturlarini (maqsadli indikatorlarni) ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy va boshqa xavflar ro‘yxatini, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni hamda natijalari bo‘yicha choraklik axborotni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga taqdim etib borilishi;

g) har chorakda Hisob palatasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakunlari bo‘yicha taqdim etilgan axborotlar Vazirlar Mahkamasining majlislarida muhokama qilib borilishi;

ichki nazorat tizimlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularning samaradorligini yanada oshirish maqsadida:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab moliyaviy va boshqa xavflarning oldini olish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirlik va idoralar, ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yirik tashkilotlarda ularning birinchi rahbarlari boshchiligida kollegial asosda “Xavflarni boshqarish” qo‘mitalari tuzilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuzilmasida hududiy soliq organlari xodimlari sonini maqbullashtirish hisobidan kamida 1-2 nafar xodimdan iborat ichki audit xizmatlari tashkil etilishi;

o‘rnatilgan tartibga muvofiq:

Hisob palatasi nazorat tadbirini amalga oshirish jarayonida nazorat ob‘ektining ichki audit xizmati tomonidan o‘tkazilgan ichki audit tadbirlari sifatiga ham baho berib borishi;

Hisob palatasi o‘zining nazorat tadbirlari sifatini baholash tizimini yo‘lga qo‘yishi;

Hisob palatasiga mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat tizimini joriy etishga, shuningdek, uning samarali faoliyat ko‘rsatishiga doir chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish vakolati berilishi;

ichki audit xizmatlari vazirlik va idoralar tizimidagi budjet hisobidan moliyalashtirilmaydigan nobudjet muassasa hamda tashkilotlarda moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat ishlariga oid hujjatlarni monitoring qilib borishi;

budjet tizimi budjetlarida takroriy va asossiz moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilishining oldini olish maqsadida davlat moliyaviy nazorati organlari hamda ichki audit xizmatlarining yillik ish rejalariga kiritiladigan moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlari majburiy tartibda Hisob palatasi bilan kelishilishi;

moliyaviy nazorat va ichki audit tadbirlari nazorat ishlarining yillik dasturlari (rejalari) va Hisob palatasi tomonidan taqdim etilgan risk-tahlillar asosida o‘tkaziladi. Bunda risk-tahlillar asosida bir oy muddatda nazorat ishlarini o‘tkazish to‘g‘risida tegishli choralar ishlab chiqilmaganda yoki o‘rganish natijalari "Masofaviy audit" axborot tizimi orqali Hisob palatasiga taqdim etilmagan yoxud o‘rganish sababsiz rad etilgan hollarda, Hisob palatasining taklifiga binoan davlat moliyaviy nazorati organlari va ichki audit xizmatlari mas‘ul shaxslariga nisbatan intizomiy ta‘sir choralari qo‘llanilishi;

davlat moliyaviy nazorati organlari hamda ichki audit xizmatlari tashkil etilgan vazirlik va idoralarga, istisno tariqasida, Markaziy bank va tijorat banklaridan budjet tashkilotlari hamda budjet mablag‘larini oluvchilarning budjet va davlat qarzi mablag‘larining harakatiga doir ma‘lumotlarni markazlashgan tartibda so‘rab olish vakolati berilganligi;

quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining Hay‘ati tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Davlat budjetining ijrosi ustidan moliyaviy nazoratni yanada kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga ma'lumotlar bazasidan va axborot tizimlaridan real vaqt rejimida foydalanish ruxsat etiladigan, shu jumladan Hisob palatasining elektron so'roviga muvofiq ma'lumotlar taqdim etadigan vazirliklar, idoralar, tijorat banklari va tashkilotlarning ro'yxati 3-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tomonidan "Masofaviy audit" axborot tizimi orqali taqdim etilgan xavf (risk) tahlillarini boshqarish sxemasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Hisob palatasining Hay'atida palata ishini samarali tashkil etish, uning tashqi audit va moliyaviy nazorat faoliyatini normativ – uslubiy ta'minlash hamda takomillashtirish kabi masalalar muhokama qilinishi; vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari mazkur Farmonga 2-ilovaga muvofiq chora-tadbirlar dasturidagi vazifalarning to'liq, sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun shaxsan mas'ul hamda javobgar hisoblanishi belgilab qo'yilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga 5-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Iqtisodiyot va moliya bo'limi manfaatdor idora va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-iyuldagi PF-100-son Farmonida nazarda tutilgan topshiriqlar o'z muddatida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi v.v.b**



**B.Muydinov**